



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
2019 yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)**



2019 yil yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1975,4 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlari, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlari kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlari ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **29,2 %** ga o'sishni ta'minladi.

2019 yil yanvar-mart oylarida	
O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi:	O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati:
1 975,4 ming so'm	129,2 %

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi
(2019 yil yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari)**


	Korxona va tashkilotlar soni, <i>birlik</i>	Xodimlar soni, <i>kishi</i>	Ish haqi fondi, <i>mln.so'm</i>	O'rtacha oylik ish haqi, <i>ming so'm</i>
Respublika bo'yicha - jami	1959	146 749	869 663,3	1 975,4
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	29	13 208	135 468,3	3 418,8
Qurilish	11	2 369	17 626,1	2 480,1
Savdo	16	2 410	12 926,8	1 787,9
Tashish va saqlash	12	8 199	64 633,3	2 627,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	12	47,7	1 325,1
Axborot va aloqa	38	1 200	7 300,5	2 027,9
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	78	3 359	32 857,3	3 260,6
Ta'lim	1276	68 621	343 911,5	1 670,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	76	24 154	109 943,2	1 517,3
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	44	2 076	9 622,1	1 545,0
Boshqa faoliyat turlari	376	21 141	122 444,0	1 930,6

Ish haqi. 2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lif sohasida 1276 ta muassasada **68621** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,8 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **343,9** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 39,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1670,6** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 35,0 % ga o'sdi.


Ta'lif iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Ta'lif iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida 1901,7 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 113,8 %), Kegeyli tumanida 1843,8 ming so'mni (110,4 %) va To'rtko'l tumanida 1745,4 ming so'mni (104,5 %) tashkil etgan bo'lsa, Muynoq tumanida 1396,0 ming so'mni (83,6 %), Qorao'zak tumanida 1425,8 ming so'mni (85,3 %) va Qonliko'l tumanida 1502,4 ming so'mni (89,9 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 29 ta korxonada 13208 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 135,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,6 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3418,8 ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 9,9 %ga o'sdi.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muynoq tumanida 6515,7 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 190,6 %) va Nukus shahrida 4551,1 ming so'mni (133,1 %) tashkil etgan bo'lsa, Chimboy tumanida 796,7 ming so'mni (23,3 %), Qo'ng'irot tumanida 1260,7 ming so'mni (36,9 %) va Xo'jayli tumanida 1355,4 ming so'mni (39,6 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **76** ta muassasada **24154** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **109,9** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,6 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangano'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1517,3** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 33,0 %ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Taxtako'pir tumanida 2181,2 ming so'mni (respublikadagi


o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 143,8 %), Qonliko'l tumanida 1597,8 ming so'mni (105,3 %), Kegeyli tumanida 1576,5 ming so'mni (103,9 %) va Xo'jayli tumanida 1576,3 ming so'mni (103,9 %) tashkil etgan bo'lsa, Taxiyatosh tumanida 1370,1 ming so'mni (90,3 %), Ellikqal'a tumanida 1424,0 ming so'mni (93,9 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish
faoliyati bo`yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2019 yil yanvar- mart; kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)**



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida 78 ta muassasada 3359 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,3 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **32,9** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 3,8 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3260,6** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 45,8 % ga o'sdi.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2019 yil yanvar- mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radian bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida 3936,5 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 120,7 %) tashkil etgan bo'lsa, Nukus tumanida 2261,4 ming so'mni (69,4 %), Qonliko'l tumanida 2412,0 ming so'mni (74,0 %) va Qorao'zak tumanida 2440,9 ming so'mni (74,9 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



2019 yil yanvar-martda ish haqi eng yuqori bo'lgan:

SOHALAR

Sanoat
3 418,8 ming so'm

Bank, sug'urta,
lizing, kredit va
vositachilik
3 260,6 ming so'm

Tashish va
saqlash
2 627,7 ming so'm

Qurilish
2 480,1 ming so'm



HUDUDLAR

Nukus shahri

- 2 449,1 ming so'm

Muynoq tumani

- 2 276,6 ming so'm

Qo'ng'irot tumani


- 2 223,7 ming so'm



Respublika bo'yicha 2019 yil yanvar-mart oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 45,8 %, ta'lim sohasida 35,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 33,0 %, tashish va saqlash sohasida 27,4 %, axborot va aloqa sohasida 20,9 % kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati


(2019 yil yanvar- mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan
tashqari, % da)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjalarda Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil mart oyida **577,2 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar- mart; respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **2449,1** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **124,0** %), Muynoq tumanida **2276,6** ming so'mni (**115,2** %) va Qo'ng'irot tumanida **2223,7** ming so'mni (**112,6** %) tashkil etgan bo'lsa, Qorao'zak tumanida **1496,5** ming so'mni (**75,8** %), Beruniy tumanida **1559,7** ming so'mni (**79,0** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha o`rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(yanvar- mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018 yil	2019 yil	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1528,6	1975,4	129,2
Nukus shahri	1998,6	2449,1	122,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1123,1	1560,4	138,9
Beruniy	1146,3	1559,7	136,1
Qorao'zak	1102,8	1496,5	135,7
Kegeyli	1268,9	1749,8	137,9
Qo'ng'irot	1746,7	2223,7	127,3
Qonliko'l	1364,9	1823,1	133,6
Muynoq	1568,5	2276,6	145,1
Nukus	1263,1	1688,1	133,6
Taxiyatosh	1442,6	1795,9	124,5
Taxtako'pir	1388,7	1658,1	119,4
To'rtko'l	1257,5	1682,2	133,8
Xo'jayli	1294,6	1736,1	134,1
Chimboy	1177,4	1590,7	135,1
Shumanay	1175,2	1595,1	135,7
Ellikqal'a	1188,1	1654,9	139,3